

Date: 7th March-2026

POLIARTRIT KASALLIGIDA MRT VA RENTGENOGRAFIYA AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Khatamovna, Muminov Xojiakbar Abdualim og'li
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Toshkent

Anatotsiya. Poliartrit bir vaqtning o'zida bir nechta bo'g'imlarning yallig'lanishi bilan kechuvchi, surunkali va progressiv xarakterga ega kasallik bo'lib, u ko'pincha autoimmun jarayonlar bilan bog'liq[1]. Revmatoid artrit poliartritning eng ko'p uchraydigan shakli hisoblanadi va erta tashxis qo'yilmasa bo'g'im deformatsiyasi hamda nogironlikka olib kelishi mumkin[2]. Bu kasallik ayyolarda orasida ko'proq uchraydi. Rentgenografiya suyak va bo'g'im tuzilmalaridagi struktur o'zgarishlarni, ya'ni bo'g'im oralg'ining torayishi, eroziya va deformatsiyalarni aniqlashda qo'llaniladi. MRT esa sinovit, erroziya va yumshoq to'qimalardagi erta yallig'lanish belgilarini aniqlash imkonini beradi hamda kasallik faolligini baholashda yuqori sezgirlikka ega[3].

Kalit so'zlar. Poliartrit, Revmatoid artrit, revmatologiya.

Tadqiqotning maqsadi. Poliartrit kasalligida rentgenografiya va MRT tekshiruvlari orqali erta aniqlash ahamiyatini tahlil qilish.

Material va metodlar. Tadqiqot –2024-2025 yillar davomida revmatologiya bo'limida poliartrit tashxisi bilan davolanayotgan bemorlar orasida olib borildi. Tekshiruvga klinik va laborator belgilar asosida poliartrit tashxisi qo'yilgan 67 nafar bemor jalb qilindi (60 nafar ayol 7 nafar erkak). Barcha bemorlarga klinik ko'rik (bo'g'imlarda og'riq, shish, ertalabki qotishish davomiyligi baholandi), laborator tekshiruvlar, rentgenografiya va MRT o'tkazildi. Rentgenografiya yordamida bo'g'im oralg'ining torayishi, suyak eroziyasi va deformatsiyalar baholandi. MRT orqali sinovit va yumshoq to'qimalardagi yallig'lanish belgilari aniqlandi. Olingan natijalar klinik va instrumental ko'rsatkichlar asosida taqqoslanib, ularning diagnostik ahamiyati tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, ko'p tarmoqli klinika revmatologiya bo'limida olib borildi. Tekshiruvga 67 nafar bemor jalb qilindi, ulardan 60 nafari ayol (89,6 %) va 7 nafari erkak (10,4 %) edi. Rentgenografiya natijalariga ko'ra, bemorlarning 80 % (54/67)ida bo'g'im oralg'ining torayishi, 65 % (44/67) bemorda suyak eroziyasi aniqlandi. Bo'g'im deformatsiyasi rentgen orqali 40 % (27/67) bemorda aniqlangan. Rentgenografiya asosan kasallikning o'rta va kech bosqichlarida samarali bo'ldi. MRT yordamida sinovit va yumshoq to'qimalardagi yallig'lanish belgilari 92 % (62/67) bemorda aniqlangan. MRT orqali dastlabki suyak eroziyasi 55 % (37/67) bemorda rentgenda aniqlanmagan. Bo'g'imda suyuqlik to'planishi MRT bilan 75 % (50/67) bemorda aniqlangan.

Xulosa. Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti ko'p tarmoqli klinikasining revmatologiya bo'limida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, poliartrit kasalligida instrumental diagnostika usullari — rentgenografiya va MRT — o'ziga xos ahamiyatga ega. Rentgen yordamida bemorlarning 80 %ida bo'g'im oralg'ining torayishi, 65 %ida

Date: 7th March-2026

suyak eroziyasi va 40 %ida deformatsiyalar aniqlangan, bu esa kasallikning kech bosqichida struktur o'zgarishlarni baholashda samarali ekanligini tasdiqlaydi. MRT esa sinovit, bo'g'im effuziyasi va dastlabki suyak eroziyalarini aniqlashda yuqori sezgirlik ko'rsatib, kasallikning erta bosqichida diagnostika imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, 67 bemor orasida 89,6 % ayol va 10,4 % erkak bo'lganligi poliartritning ayollarda ko'proq uchrashini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, rentgen va MRT usullarini birgalikda qo'llash poliartritni erta aniqlash, kasallik faolligini baholash va davolash samaradorligini monitoring qilishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALAMILGAN ADABIYOTLAR:

1. Poddubnyy D. Classification vs diagnostic criteria: the challenge of diagnosing axial spondyloarthritis. *Rheumatology (Oxford)*. 2020 Oct 1;59(Suppl4):iv6-iv17. doi: 10.1093/rheumatology/keaa250. PMID: 33053191; PMCID: PMC7566535.
2. Palmer A, Fernquest S, Rombach I, Harin A, Mansour R, Dutton S, Dijkstra HP, Andrade T, Glyn-Jones S; FAIT Study Group. Medium-term results of arthroscopic hip surgery compared with physiotherapy and activity modification for the treatment of femoroacetabular impingement syndrome: a multi-centre randomised controlled trial. *Br J Sports Med*. 2025 Jan 2;59(2):109-117. doi: 10.1136/bjsports-2023-107712. Erratum in: *Br J Sports Med*. 2025 Jul 17;59(15):e2. doi: 10.1136/bjsports-2023-107712corr1. PMID: 39592214.
3. Beaufils P, Becker R, Kopf S, Englund M, Verdonk R, Ollivier M, Seil R. Surgical management of degenerative meniscus lesions: the 2016 ESSKA meniscus consensus. *Knee Surg Sports Traumatol Arthrosc*. 2017 Feb;25(2):335-346. doi: 10.1007/s00167-016-4407-4. Epub 2017 Feb 16. PMID: 28210788; PMCID: PMC5331096.

